

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

3-МАХСУС СОН

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
СПЕЦИАЛЬНЫЙ НОМЕР-3

JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
SPECIAL ISSUE-3



ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES
№SI-3 (2025) DOI <http://dx.doi.org/10.26739/2181-9556-2025-SI-3>

Бош муҳаррир:
Главный редактор:
Chief Editor:
Сеитов Азамат Пулатович
доктор социологических наук (DSc), профессор

Бош муҳаррир ўринбосари:
Заместитель главного редактора:
Deputy Chief Editor:
Сабирова Умида Фархадовна
доктор социологических наук (DSc)

ТАҲРИРИЙ МАСЛАҲАТ КЕНГАШИ | РЕДАКЦИОННЫЙ СОВЕТ | EDITORIAL BOARD:

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Бекмурад Мансур Бобомурадovich
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Каланов Комил Куллахматович
кандидат социологических наук, профессор (Узбекистан)
Убайдуллаева Раиса Турсуновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Негматова Шахзода Шухратовна
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Шайылдаева Асель Кокоевна
кандидат социологических наук (Кыргызстан)

Исмаилов Алишер Агзамович
доктор экономических наук, (Узбекистан)
Щепилова Галина Германовна
доктор философских наук, профессор (Россия)
Рожанский Михаил Яковлевич
кандидат философских наук (Россия)
Маматов Нормурат
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Бурнашев Рустам Ренатович
кандидат философских наук, профессор (Казахстан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Умаров Абсалом Адилевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Холбеков Абдугани Жуманазарович
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Шайхисламов Рафаэль Бадретдинович
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Акулич Мария Михайловна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

Антонио Алонсо Марсос
доктор политических наук, профессор (Испания)
Фадеева Любовь Александровна
доктор социологических наук, профессор (Россия)
Виктор Агаджаньян
доктор философии по социологическим наукам,
профессор (США)
Абдулазизов Абдулвохид Хабибуллоевич
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Аликариев Нуритдин Сапаркариевич
доктор экономических наук, профессор (Узбекистан)
Матибаев Тасполат Балтабаевич
доктор социологических наук, профессор (Узбекистан)
Николов Стефан
доктор философии по социологическим наукам, (Болгария)

Мирзахмедов Абдирашид Мамасидикович
доктор философских наук, профессор (Узбекистан)
Ли Ци
доктор исторических наук, профессор (Китай)
Сухомлинова Марина Валерьяновна
доктор социологических наук, профессор (Россия)

www.tadqiqot.uz решают задачи, предусмотренные Стратегией Узбекистана 2030, направленные на развитие науки за счет внедрения достижений научных исследований ученых и служащих их признанию в международном научном сообществе. Так, каждой статье, опубликованной в журнале, присваивается номер DOI (Crossref). Журналы включены в международные индексные базы данных. Входит в список журналов ВАК Узбекистана.

22.00.01-Социология назарияси, методологияси ва тарихи. Социологик тадқиқотлар усуллари.
Теория, методология и история социологии. Методы социологических исследований.
Theory, methodology and history of sociology. Methods of sociological research.

Пармонов Фарход Ярашевич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Жусубалиев Абдикайым Рысбаевич
кандидат социологических наук, доцент (Кыргызстан)
Алимухамедова Нодира Ядгаровна
доктор философии по философским наукам (Узбекистан)
Каланова Сабохат Мурадovна
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)

Камалова Хатира Сабыровна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)
Тагиева Гулсум Гафуровна
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)
Ахмедова Феруза Медетовна
доктор философии по социологическим наукам (PhD)
(Узбекистан)
Рахимбаева Дилбархон Абдулхамитовна
кандидат философских наук, доцент (Узбекистан)

22.00.02-Ижтимоий тузилиш, ижтимоий институтлар ва турмуш тарзи
Социальные структуры, социальные институты и образ жизни
Social structures, social institutions and way of life

Аликариёва Аълохон Нуриддиновна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Зайтов Элёр Холмаматович
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Уразалиева Гулшода Бекпұлатовна
кандидат социологических наук, доцент (Узбекистан)

Жиянмуратова Гулноз Шербутаевна
доктор философии по социологическим наукам,
доцент (Узбекистан)
Мирзахмедов Хуршид Абдирашидович
доктор философии по социологическим наукам,
и.о. профессор (Узбекистан)
Қаюмов Қахрамон Нозимжонович
доктор философии по социологическим наукам (Узбекистан)

22.00.03-Ижтимоий онг ва ижтимоий жараёнлар социологияси.
Социология социального сознания и социального процесса.
Sociology of social consciousness and social process

Сеитова Зухрагон Пиржановна
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Абдуллаев Акмал Гадаймурадovич
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Доспанова Дилара Уракбаевна
кандидат филологических наук, доцент (Узбекистан)

Каримов Бобир Шаропович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)
Якубов Ильдар Харрасович
кандидат политических наук, доцент (Узбекистан)
Абдухалилов Абдулло Абдухамитович
доктор социологических наук, доцент (Узбекистан)

Page Maker | Верстка | Саҳифаловчи: Хуршид Мирзахмедов

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC the city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

МУНДАРИЖА | СОДЕРЖАНИЕ | CONTENT

1. Сеитов Азамат, Кутбидинов Файзиддин РОЛЬ РЕЛИГИОЗНЫХ УЧРЕЖДЕНИЙ В ФОРМИРОВАНИИ ОБЩЕСТВЕННОГО МНЕНИЯ О ВНЕШНЕЙ ПОЛИТИКЕ.....	11
2. Karimov Bobir JAMOADA MOTIVATSIYA VA SAMARADORLIK.....	18
3. Mamatov Normurat IJTIMOIY FANLARNI O‘QITISH JARAYONIDA TALABALAR SIYOSIY ONGINI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	28
4. Rasulov Abdimumin SHAXSNING SOTSIAL INTELLEKTUALLIK KO‘RSATKICHLARI VA KAMOLOT OMILILARI O‘RTASIDAGI MUNOSABATLAR.....	35
5. Xusanova Hayriniso IJTIMOIY NIHOYA TIZIMINING KONSEPTUAL MODEL.....	43
6. Abduxalilov Abdullo NOGIRONLIK FENOMENINI TADQIQ ETILISHINING METODOLOGIK JIHATLARI.....	49
7. Якубов Ильдар КОНЦЕПЦИЯ ГИБРИДНОЙ ВОЙНЫ КАК ФОРМЫ СОВРЕМЕННЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ КОНФЛИКТОВ.....	57
8. Abdullayev Akmal O‘RTA ASRLARDA G‘ARBIY YEVROPADAGI DAVLAT VA JAMIYAT BOSHQARUVI TUZILMALARIGA OID KONSEPSIYALARNING SOTSIOLOGIK TAHLILI.....	63
9. Хасанова Мавлюда СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКАЯ ЗНАЧИМОСТЬ ПОСТРОЕНИЯ ГУМАННОГО ГОСУДАРСТВА В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ.....	74
10. Jiyanmuratova Gulnoz, Urunboyeva Janona O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA XOTIN-QIZLAR IJTIMOIY-SIYOSIY FAOLLIGINI OSHIRISH ISLOHOTLARINING ME‘YORIY-HUQUQIY ASOSLARI.....	80
11. Алимухамедова Нодира ИСТОРИЧЕСКАЯ ИЗМЕНЧИВОСТЬ ЭТНОНАЦИОНАЛЬНЫХ КОНЦЕПЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ.....	90
12. Tolipov Abdug‘affor VOYAGA YETMAGANLAR ORASIDA HUQUQBUZARLIKNING O‘SIB BORISHIGA TA‘SIR QILUVCHI IJTIMOIY OMILLAR.....	96
13. Berdimuratov Marat YOSHLARNI IJTIMOIY RIVOJLANTIRISH UCHUN OLIY TA‘LIM MUASSASALARIDA SOTSIOLOGIYA FANINI O‘QITISHNI OMMALASHTIRISH.....	104


14. Хамиджонов Умиджон	
ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКОЕ ИЗУЧЕНИЕ ВЗАИМОСВЯЗИ ПОНЯТИЙ СИСТЕМА ОБРАЗОВАНИЯ И ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ.....	110
15. Ixtiyarov Farxod	
INSON KAPITALINI KEYS-STADI NEGIZIDA TAKOMILLASHTIRISHDA IJTIMOY TRANSFORMATSIYALASHUV TENDENSIYALAR.....	116
16. Хасанова Мавлюда	
АНАЛИЗ ВОПРОСОВ БОРЬБЫ С БЕДНОСТЬЮ В УСЛОВИЯХ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА.....	124
17. Radjabova Aziza	
NATIONAL DEVELOPMENT POLICIES IN THE CONTEXT OF THE SUSTAINABLE DEVELOPMENT GOALS: EVIDENCE FROM UZBEKISTAN.....	131
18. Kalanova Sabohat	
JAMIYATDA AVLODLARARO MUNOSABATLARNING SOTSIAL STRUKTURASI.....	138
19. Ixomjon Xudayarov	
ETNOMADANIY INTEGRATSIYA JARAYONLARIDA YUMSHOQ EVOLYUSION MOSLASHUV TENDENSIYASI.....	148
20. Tagaymuratova Gulchehra	
KONSANGUIN NIKOHLAR FENOMENINING IJTIMOY OMILLARI VA BIOETIK YONDASHUVLAR.....	155
21. Jabborov Jaxongir	
YOSHLARNI ISHGA JOYLASHTIRISHNING IJTIMOY XAVFLARI VA TO'SIQLARI: NEET GURUHI, PREKARIZATSIYA, RAQAMLI TENGSIZLIK.....	162
22. Ixtiyarov Farxod	
DAVLAT XIZMATCHILARI MALAKASINI OSHIRISHDA KEYS USULINING IMKONIYATLARI.....	170
23. Xasanov Sharofidin	
JAZONI IJRO ETISH MUASSASALARIDAN QAYTGAN YOSHLARNI IJTIMOY HAYOTGA REINTEGRATSIYALASH: XORIJ TAJRIBASI.....	179
24. Nurulloev Shahriyor	
MILLIY INTERNET-MEDIA SIYOSATINI RIVOJLANTIRISH ORQALI YOSHLAR IJTIMOY FAOLLIGINI OSHIRISH: MUAMMO VA VAZIFALARI.....	189
25. Аликариев Нуриддин	
СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ ПОВЫШЕНИЯ ПРОИЗВОДИТЕЛЬНОСТИ ТРУДА В ВЫСШЕМ ОБРАЗОВАНИИ.....	195
26. Alikariyeva A'loxon	
OLIY TA'LIMDA SIFAT BOSHQARUVI TIZIMI INSTITUTSIONAL ASOSLARI.....	202

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ | JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Mamatov Normurat,
Ijtimoiy va siyosiy fanlar instituti
f.f.d., professor

ИЖТИМОЙ ФАНЛАРНИ О‘ҚИТИШ ЖАРAYONIDA TALABALAR SIYOSIY ONGINI ТАКОМИЛЛАСHTИРИШ MASALALARI

 <http://dx.doi.org/10.5281/zenodo.18099375>

ANNOTATSIYA

Maqolada oliy ta’lim muassasalarida ijtimoiy fanlarni o’qitish jarayonida talaba yoshlar siyosiy ongini shakllantirish va takomillashtirish masalalari ijtimoiy va falsafiy tahlil qilinadi. Muallif globallashuv sharoitida yoshlar siyosiy ongiga ta’sir etuvchi ijtimoiy, ma’naviy va axborot omillarini ochib beradi. Falsafaning dunyoqarash va metodologik funksiyalari asosida siyosiy ijtimoiylashuvning institutsional makonlari, pragmatik va tanqidiy tafakkurning o’rni asoslanadi. Maqolada ijtimoiy ong shakllarining o’zaro dialektik bog’liqligi hamda ta’lim va tarbiya birligiga tayangan holda siyosiy madaniyatni rivojlantirish yo’llari ko’rsatiladi.

Kalit so‘zlar: siyosiy ong, ijtimoiy fanlar, falsafa, siyosiy ijtimoiylashuv, siyosiy madaniyat, yoshlar, globallashuv, pragmatik tafakkur, tanqidiy fikrlash, ta’lim va tarbiya, ijtimoiy ong, metodologiya.

Маматов Нормурат,
Институт социальных и гуманитарных наук,
д.ф.н., профессор

ВОПРОСЫ ПОВЫШЕНИЯ ПОЛИТИЧЕСКОЙ СОЗНАТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ В ПРОЦЕССЕ ПРЕПОДАВАНИЯ ОБЩЕСТВЕННЫХ НАУК

АННОТАЦИЯ

В статье анализируются социальные, философские и методологические основы формирования и совершенствования политического сознания студенческой молодежи в процессе преподавания социальных дисциплин в высших учебных заведениях. Автор рассматривает влияние глобализации, информационной среды и институтов политической социализации на развитие политического мировоззрения молодежи. Особое внимание уделяется роли философии как мировоззренческой и методологической основы формирования политической культуры, а также значению прагматического и критического мышления. Обосновывается диалектическая взаимосвязь политического сознания с нравственным, правовым, эстетическим и религиозным сознанием в контексте единства образования и воспитания.

Ключевые слова: политическое сознание, социальные науки, философия, политическая социализация, политическая культура, молодежь, глобализация,

прагматическое мышление, критическое мышление, образование и воспитание, социальное сознание, методология.

Mamatov Normurat,
Institute of Social Sciences and Humanities,
Doctor of Philosophy, Professor

INCREASING STUDENTS' POLITICAL AWARENESS IN SOCIAL SCIENCES TEACHING

ABSTRACT

The article examines the philosophical and methodological foundations of forming and improving students' political consciousness in the process of teaching social sciences in higher education institutions. The author analyzes the impact of globalization, the information environment, and political socialization institutions on youth political worldview development. Special attention is paid to the role of philosophy as a worldview and methodological basis for political culture formation, as well as to the importance of pragmatic and critical thinking. The paper substantiates the dialectical interrelation between political consciousness and moral, legal, aesthetic, and religious forms of social consciousness within the framework of the unity of education and upbringing.

Keywords: political consciousness, social sciences, philosophy, political socialization, political culture, youth, globalization, pragmatic thinking, critical thinking, education and upbringing, social consciousness, methodology.

KIRISH

Globalizm sharoitida yoshlar siyosiy ongidagi umumiylik, xususiylik va yakkalik o'rtasidagi munosabatlarning falsafiy tahlili, yosh avlod qalbi, ongini egallashga va yoshlarning siyosiy ongidan siyosiy, ma'naviy tahdid qurollari sifatida foydalanishga harakat qilayotgan kuchlarning tobora kengayib borayotganligi tahlili, yoshlarning siyosatga nisbatan befarqligining, ular hayotida maishiy qullik ruhiyatining ortib borayotganligi, ularning kundalik turmushlarida turli altruistik mazmundagi qadriyatlar tobora ommalashib borayotganligining falsafiy tahlili, O'zbekiston yoshlarida siyosiy ongni shakllantirishga bo'lgan ehtiyojning ortib borayotganligi va ushbu ehtiyojni qondirish bo'yicha, ularning siyosiy ongini, pragmatik, kreativ fikrlash, intellektual salohiyatini innovatsiyalar asosida kuchaytirib yangi bosqichga ko'tarish bo'yicha siyosiy institutlar tomonidan olib borilayotgan harakatlarning falsafiy tahlili talaba yoshlar o'rtasida ijtimoiy fanlarni o'rganish jarayonida ularning siyosiy ongini yanada takomillashtirish bo'yicha nazariy amaliy va uslubiy ishlarning samaradorligini oshirish bugungi kundagi oliy ta'lim muassasalari oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

METODOLOGIYA

So'nggi yillarda xorijiy tadqiqotlarda oliy ta'lim tizimida fuqarolik ongi, siyosiy ong va siyosiy ishtirokni shakllantirish masalasi bir nechta yo'nalishda chuqur o'rganilmoqda. Birinchi yo'nalish ta'lim jarayonidagi siyosiy samaradorlik hissi, ya'ni "political efficacy" va uning talabalarning real ishtirok amaliyotiga ta'siri bilan bog'liq. Masalan, universitet kurslarida fuqarolik ishtirokini talab qiluvchi vazifalar, ya'ni deputatga murojaat yozish, ommaviy eshituvda qatnashish, mahalliy jamoat yig'ilishiga borish kabi amaliy topshiriqlar talabalarda siyosiy samaradorlik hissini kuchaytirishi mumkin. Bu holat talabaning o'zini fuqarolik jarayonlarining tashabbuskori yoki ishtirokchisi sifatida his qilishiga xizmat qiladi, shuning uchun ijtimoiy fanlarni o'qitishda amaliy faoliyat bilan bog'langan interaktiv usullarni kuchaytirish maqsadga muvofiq hisoblanadi [1].

Ikkinchi yo'nalish raqamli muhit, ijtimoiy tarmoqlar va axborot oqimi sharoitida siyosiy ong shakllanishida media va axborot savodxonligi, ya'ni media and information literacy o'rnini yoritadi. Yoshlar siyosiy ma'lumotni ko'proq raqamli platformalardan olmoqda, shu sababli faktlarni tekshirish, manbani baholash, manipulyatsiyani anglash hamda turli formatdagi axborotni tanqidiy qabul qilish ko'nikmalari siyosiy ongning ajralmas qismi sifatida ko'rilmogda [2]. Shu liniya

davomida tadqiqotchilar media ta'limni dezinformatsiyaga qarshi turishda muhim omil deb baholaydilar, chunki u talabalarda tanqidiy fikrlashni va ijtimoiy mas'uliyatni mustahkamlaydi [3].

Peru universitet talabalarida olib borilgan empirik tahlillarda media va axborot savodxonligi ko'rsatkichlari fuqarolik shakllanishi bilan statistik jihatdan bog'liq ekani ham ko'rsatilgan, bu esa ijtimoiy fanlar o'qitish metodikasida media ta'lim elementlarini tizimli joriy etish zarurligini tasdiqlaydi [11].

Uchinchi yo'nalish globallashuv va internatsionallashuv sharoitida oliy ta'limning qiymatlar tizimi qanday o'zgarishi masalasini qamrab oladi. Ayrim tadqiqotlarda oliy ta'limning bozorga mos ko'nikmalarga yo'nalishi kuchayishi bilan bir vaqtda talabalarda jamoaviylik, umumiy manfaat va fuqarolik burchi kabi qiymatlar qanday qayta shakllanayotgani tahlil qilinadi.

Bu yerda universitetning ijtimoiy birlikni ta'minlovchi institutsional missiyasi bilan raqobatbardoshlik va statusga yo'nalgan motivlar o'rtasidagi muvozanat muhim mavzulardan biri bo'lib qolmoqda [13]. Shuningdek, global fuqarolik tushunchasi oliy ta'limda interkultura kompetensiyasi, global identifikatsiya va fuqarolik ishtirokini bir butun yondashuvda ko'rish zarurligini ko'rsatadi, bu esa ijtimoiy fanlar kurslarida umuminsoniy qiymatlar, jamoaviy mas'uliyat va ijtimoiy faollikni bog'lovchi nazariy sxemalarni kuchaytirishga yordam beradi [5].

Internatsionallashuvning o'zi ham bahslar, tanqidlar va amaliyotlar tarkibida tahlil qilinib, davlat siyosati, iqtisodiy omillar, etnik va madaniy faktorlar hamda globallashuvning ta'siri bir vaqtda hisobga olinishi kerakligi ta'kidlanadi [6].

To'rtinchi yo'nalish kritik pedagogika va raqamli sharoitda demokratik ta'lim g'oyalarini amalga oshirish usullariga bag'ishlangan. Ayniqsa global janub kontekstida raqamli tengsizlik, ma'lumot xavfsizligi, madaniy moslik va inklyuzivlik masalalari ta'lim sifatiga bevosita ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. Kritik raqamli pedagogika talabani faqat bilim qabul qiluvchi emas, balki muhokama, bahs va ijtimoiy yechim yaratishga qodir sub'ekt sifatida ko'rishni taklif etadi [7]. Bu yondashuv maqolada ta'kidlangan interaktiv metodlar, guruhdagi rollar, muammoli savollar va falsafiy mulohaza kabi elementlarni xalqaro nazariy maydon bilan bog'lash imkonini beradi.

Beshinchi yo'nalish universitetning fuqarolik qiymatlarini rag'batlantirish orqali talabalarining siyosiy ishtirokiga ta'sirini empirik ko'rsatishga qaratilgan. Masalan, Kuvayt kontekstida olib borilgan tadqiqotda milliy sadoqat hissi universitetning fuqarolik qiymatlarini ilgari surishi vositasida talabalarining siyosiy ishtiroki bilan bog'liq ekani ko'rsatilgan. Bu xulosa universitetda fuqarolik qiymatlarini shakllantirish faqat ma'naviy tarbiya emas, balki siyosiy ishtirok uchun ham institutsional resurs ekanini anglatadi [4].

Oltinchi yo'nalish fuqarolik ta'limi dasturlarining ta'sirini baholash va o'lchov instrumentlarini ishlab chiqish bilan bog'liq. Bunda media savodxonlik va fuqarolik ishtirokini o'lchash uchun validlangan shkalalar yaratish, dasturlarning qisqa va o'rta muddatli ta'sirini solishtirish hamda aralash metodologiyadan foydalanish tendensiyasi kuchaymoqda. Masalan, NewsWise dasturi doirasida yangilik savodxonligi va fuqarolik ishtirokini o'lchashga mos indikatorlar ishlab chiqilgan va ular o'rtasida bog'liqlik mavjudligi ko'rsatilgan [12]. Bu tajriba maqolada taklif etilayotgan metodik yechimlarni amaliyotda baholash uchun indikatorlar tizimini shakllantirish, ya'ni o'qitish usullari va natija ko'rsatkichlari o'rtasida mantiqiy bog'liqlikni aniqlash uchun foydali namuna bo'la oladi.

Rossiyalik tadqiqotlarda oliy ta'lim tizimida fuqarolik va siyosiy ongini shakllantirish ta'lim va tarbiyaning yaxlit jarayoni sifatida talqin qilinadi. Ayniqsa, ijtimoiy fanlar orqali tanqidiy fikrlash, qiymatlarga asoslangan pozitsiya va ijtimoiy mas'uliyatni rivojlantirish yoshlarning siyosiy madaniyatini oshirishda asosiy omil sifatida ko'rsatiladi [14].

Shu asosda qo'shimcha nazariy xulosa sifatida quyidagi fikrlarni kiritish mumkin. Birinchidan, talabalar siyosiy ongini takomillashtirishda ijtimoiy fanlar kontenti bilan bir qatorda amaliy fuqarolik tajribasi va uning refleksiyasi muhim o'rin tutadi, bu esa siyosiy samaradorlik hissini kuchaytirish mexanizmi orqali ishlaydi.

Ikkinchidan, raqamli muhitda siyosiy axborotni qabul qilish madaniyati siyosiy ongning markaziy qismiga aylangan, shuning uchun media va axborot savodxonligi hamda tanqidiy fikrlash kompetensiyalari ijtimoiy fanlar o'qitish metodikasida institutsional darajada joy olmog'i kerak.

Uchinchidan, globallashuv sharoitida universitetlar qiymatlar tizimidagi o'zgarishlar talabalar ongida ham real aks etadi, shuning uchun milliy manfaat, umuminsoniy qadriyatlar, fuqarolik mas'uliyati va pragmatik motivatsiyalar o'rtasidagi uyg'unlikni tushuntiruvchi kompleks yondashuv talab etiladi.

ASOSIY QISM

Bugungi kunda oliy ta'lim muassasalarida ijtimoiy fanlar Vazirlar mahkamasi tomonidan belgilab berilgan me'yor va tartibga ko'ra o'qitilmoqda. Bunda markaziy o'rinni falsafa, dinshinoslik, O'zbekiston tarixi kabi fanlar egallaydi. Yuqorida keltirilgan uchta fanning yoshlarda siyosiy dunyoqarashni shakllantirish bo'yicha vazifalari alohida-alohidadir. Chunki, falsafa nafaqat ijtimoiy fanlar orasida balki umuman fanlar tizimida birinchidan, dunyoqarashni shakllantiruvchi fan hisoblansa, ikkinchidan, barcha fanlar uchun tadqiqotni amalga oshirishda, dunyoqarashni shakllantirishda metadalogiya vazifasini bajaruvchi fan hisoblanadi.

Shu nuqtai nazardan yoshlarda siyosiy dunyoqarashni shakllantirishda falsafaning o'rni va roli benihoya kattadir. Falsafani o'zlashtirish jarayonida talabalarda siyosiy ongni shakllantirishda quyidagi omillarning roli alohida ahamiyatga ega.

Bular: tayyorlangan darsliklarning nafaqat nazariy jihatdan mukammal ishlanganligi, balki unda bayon etilgan falsafiy qarashlarning, nazariyalarning benihoya insonparvarligiga, bag'rikenglikga, totuvlikga va tinchlikga yetaklovchiligi, yoshlarda vatanga va uni unib o'stirgan millatga, shu millatning an'alariga hurmat va mehrning berilishi alohida ahamiyatga ega. Ikkinchidan, falsafadan dars berayotgan o'qituvchilarda siyosiy qarashning aniq shakllanganligi va unda davlatda qabul qilingan maqsad va strategiyalar bilan uning dunyoqarashida uyg'unlikning mavjudligi muhim ahamiyatga ega.

Yoshlarda siyosiy dunyoqarashning shakllanishda quyidagi omillar ham muhim o'rin tutadi. Birinchidan, siyosiy ijtimoiylashuv makonlari hisoblangan oila, maktab, mahalla, oliy o'quv yurti, ishlab chiqarish tashkiloti va boshqalar o'rtasida vujudga kelgan birlik umumiy yo'nalish, umumiy qarash. Ikkinchidan, ushbu siyosiy ijtimoiylashuv makonlaridagi javobgar shaxslarning yoshlar kelajagi uchun bufarq emaslik hayotiy pozitsiyasi. Ushbu siyosiy ijtimoiylashuv makonlari birligi va boshqa ijtimoiy madaniya va axborot markazlari faoliyati asosida shakllanadigan siyosiy madaniyat makoni yoshlarning siyosiy ijtimoiylashuvida belgilovchi ahamiyatga ega. Yoshlar ushbu makonlar tizimida birlamchi va ikkilamchi siyosiy ijtimoiylashuvni o'z boshlaridan kechiradilar.

Ushbu jarayonlarda shakllangan ijtimoiy dunyoqarash jumladan siyosiy dunyoqarash bilan talaba yoshlar oliy ta'lim muassasalariga kasbga ega bo'lish uchun o'qishga kiradilar. Shuni alohida takidlash kerakki turli jamiyatlarda oliy ta'limda kasb berish va talabani tarbiyalashga turli nuqtai nazardan turlicha qarashlar mavjud. Xususan, O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlaridan tortib to oliy ta'lim va undan keyingi ta'lim bosqichlaridan ham tarbiyadan begonolashmagan holda amalga oshiriladi. Shuning uchun ham biz o'zimizning ta'lim tarbiya ishini amalga oshirishda shaxsni garmonik rivojlantirishda ta'lim va tarbiyaning uzviy birligidan kelib chiqamiz bunda ta'lim rejasidagi har bir fanning o'z o'rni va funksiyasi bor.

Falsafa fanini o'zlashtirish jarayonida talabalarda siyosiy ongni shakllantirish masalasi haqida gapirganda talabalarining alohida olingan guruhida umumiy siyosiy qarashning mavjudligi va shu zaminda alohida olingan talaba yoshning o'ziga xos "Men"ligiga ega ekanligiga alohida e'tibor berish kerak. Shu o'rinda, gap yoshlarda dasturlangan holda yoshlarda siyosiy ongni shakllantirish haqida gap ketmayotganligi, balki alohida olingan talabaning o'z qiziqishlari va talablariga ko'ra ularda siyosatga nisbatan qiziqishni, siyosatga nisbatan javobgarlikni, irodani, dunyoqarashni shakllantirish haqida ketayotganligiga alohida e'tibor berishimiz kerak. Chunki, siyosiy madaniyatning kuchi fikrlar xilma-xilligi dialektikasi asosida alohida olingan talaba shaxsida mustaqil sog'lom uzoqqa mo'ljallangan siyosiy pozitsiyani shakllantirishda ko'rinadi.

Albatta, talabaning siyosiy ijtimoiylashuvida ijtimoiy fanlar bo'yicha o'tilayotgan mashg'ulotlar o'ziga xos muhitga ega. Ushbu amaliy mashg'ulotlarda ular o'zlarini go'yo jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o'z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanligidan kelib chiqqan holda ishtirok etayotgandek o'zini-o'zi boshqarishini namoyon etishi kerak. Ayni vaqtda ushbu hissiyotlari va tasavvurlarini o'zlari bevosita ishtirok etayotgan saylovlarda va referendumlarda ifoda etishlari lozim. Bu jarayonlarda ular nafaqat saylovchi rovida balki mahalliy

va qonunchilik palatasi deputatligiga nomzod sifatida ham ishtirok etadi. Seminar mashg'ulotlarida va kundalik siyosiy jarayonlarda ishtirok etayotgan talabalarda davlat organlarini demokratik tarzda shakllantirish, shuningdek davlat organlarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini bevosita amalga oshirishda ishtirok etuvchi sifatida his qilishi kerak.

Bunda talabalarining o'z guruhlarida har birining o'ziga xos rollarini ijro etishiga alohida ahamiyat berishi kerak. Buni biz ijtimoiy falsafadagi davlat, davlat siyosati, davlatlararo munosabatlar, milliy munosabatlar, ijtimoiy hayotdagi muammolar va ularning yechimlari, global munosabatlar bu munosabatlarda O'zbekistonning o'rni va roli kabilarni muhokama qilishda ko'rishimiz mumkin.

Bunda muhokamaga qo'yilgan har-bir muammo bo'yicha talabalarni bir necha ijodiy guruhlariga bo'lib, har bir guruhga o'z liderini tanlash huquqini bergan holda ularning masalaga xilma-xil variantda javob tayyorlash imkoniyatini berish kerak. Ushbu variantlarni tayyorlashda talabalar falsafaning taraqqiyot, qarama-qarshilik, qarama-qarshiliklar birligi, qarama-qarshiliklar kurashi, ziddiyat, ziddiyatning yechimi. Shakl va mazmun, mohiyat va hodisa, sabab va oqibat kategoriyalaridan unumli foydalanganlaridagina siyosiy masalalarga nisbatan talabalarda falsafiy qarashlar shakllanadi.

Ushbu jarayonlarni amalga oshirishda talabalar masalaga innovatsion va tanqidiy yondoshishiga keng imkoniyat berish lozim. Innovatsion yondoshuvda talaba falsafadagi pragmatizm oqimi vakillarining qarashlaridan unumli foydalanishlari mumkin. Buning uchun ular jamiyatning ta'lim va o'qitish; iqtisodiy imkoniyatlar va kasbiy hayot; siyosiy integratsiya; manfaatdorlik va harakatchanlik; maqsad va vosita tanlash; siyosiy ta'sir; raqamli hayot va internet, internetdan maqsadli foydalanish kabi jihatlarini mukammal o'zlashtirganliklari kerak.

Bulardan tashqari yoshlar siyosiy ongini shakllantirish, rivojlantirishda o'qituvchilar ko'p faktorlilik, ko'p yo'nalishlilik, ko'p funksionalikdan kelib chiqqan holda ular pragmatik tafakkurning roliga alohida ahamiyat berishi kerak. Shuning uchun talabalar V.K.Pirs, A.Jeyms, T.Dyui kabi pragmatizm falsafasi asoschilarining qarashlarini mustaqil o'zlashtirishlari kerak.

Pragmatistlar falsafa olamiga nemis mumtoz falsafasidan keyin kirib kelgan faylasuflardir. Ularning falsafiy qarashlarida ma'lum ziddiyatlar, noizchiliklar bilan birga inson, uning hayoti muammolari, maqsadi, maqsadga erishish va foyda ko'rish texnologiyalari keng talqin etilgan. Ular siyosiy ongni rivojlantirishda e'tiqod va yangi bilim birligini omil sifatida tahlil etadi.

A.Jeymsning siyosiy ong falsafasi klassik pragmatizmdagi imtiyozli yo'lni, yoshlarning siyosatga bo'lgan qiziqishlarini ortirish, siyosat olamidagi munosabatlarni tartibga solish imkonini beradi.

Aytish kerakki, yoshlar siyosiy ongini shakllantirish va rivojlantirishda ularning siyosiy ongidagi o'zgarishlar ijtimoiy ongning boshqa shakllaridagi o'zgarishlar bilan bog'liq holda amalga oshadi. Bunda o'qituvchilar ijtimoiy ongning ahloqiy ong, huquqiy ong, estetik ong, diniy ong kabi shakllaridan unumli foydalanishi kerak. Chunki, siyosiy ong yuqorida keltirilgan ijtimoiy ong shakllarining har-birida ishtirok etadi. Ayni vaqtda, yuqorida keltirilgan barcha ijtimoiy ong shakllari siyosiy ongda ham ishtirok etadi.

Ushbu dialektikada masala qaysi ijtimoiy ong shakli qaysi boshqa biri bilan bog'lanishi zarur bo'lsa, masala shunga ko'ra dolzarblashadi. Masalan, bugun O'zbekistonda diniy ong va siyosiy ong, diniy madaniyat va siyosiy madaniyat, diniy faollik va siyosiy faollik o'rtasidagi munosabatlarni tushunish bo'yicha ma'lum anglanilmagan jihatlar mavjud. Ushbu jihatlar falsafiy tahlil qilinganda masala jamiyat va shaxs manfaati uyg'unlig'iga ko'ra aniq ahamiyat kasb etadi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan dialektikaga aloqador fikrni davom etirib shuni aytish kerakki, umuman siyosiy ong fuqoro va hokimiyat, ijtimoiy guruh va hokimiyat, siyosiy partiyalar va hokimiyat o'rtasidagi munosabatni inikos etuvchi hodisadir.

Ushbu hodisa jamiyatda tarbiyaviy, kommunikativ, bilish, pragnostika va mafkuraviy vazifalarni ham bajaradi. Shuning uchun siyosiy ongning nihoyatda sergak va mushohadali hamda sog'lom bo'lishligi juda katta ijtimoiy ahamiyatga ega. Siyosiy ong mavjud siyosiy tizimdan kelib

chiqqan holda jamiyat mafkurasiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Ayni vaqtda mafkura ham siyosiy ongga o'zining jiddiy ta'sirini o'tkazadi.

Ushbu munosabat siyosiy sotsializatsiyaning garmonik tipida keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. Shulardan kelib chiqqan holda falsafa bo'yicha o'tilayotgan darslarda siyosiy ong bilan axloqiy, estetik, huquqiy ong munosabatlari bag'ishlangan falsafiy mushohadalarni o'quv dasturida alohida berilgan "Ahloq falsafasi", "Nafosat falsafasi", "Korrupsiyaga qarshi kurashning jahon tajribasi" mavzularining nazariy va amaliy mashg'ulotlarida talabalarda siyosiy ongni shakllantirishga yo'naltirilgan masalalar sifatida ham ko'rib chiqish mumkin.

Albatta siyosiy hayotda har qanday siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy munosabat va hodisalarga baho beriladi. Ular turli xil nuqtai nazardan muhokama va tahlil qilinadi. Shunday holatda talaba axloqning yaxshilik va yomonlik, vijdon va burch, hayotning mazmuni kabi kategoriyalardan foydalangan holda muhokama qilinayotgan iqtisodiy munosabatlarga baho berishga harakat qiladi. Bu harakatda siyosiy ong, siyosiy madaniyat, siyosiy qadriyatlar ishtirok etadi. Chunki, har qanday bahoda baho beruvchi individning tarixiy ijtimoiy ildizi, uning qarashlaridagi ijtimoiy, manaviy va siyosiy mezonlarning o'rni alohida ahamiyatga ega.

Shundan kelib chiqqan holda talabalarda siyosiy ongni shakllantirishda manaviyat asoslarini, madaniyat asoslarini ular tomonidan chuqur o'zlashtirganligiga ahamiyat bermog'imiz kerak. Falsafa fanini o'zlashtirish jarayonida talabalarda siyosiy ongni shakllantirishning asosiy kanali ularning o'z-ustilarida mustaqil shug'ullanishlari hisoblanadi. Ularning Mustaqil shug'ullanishlariga qiziqish falsafadan o'tiladigan darsliklarni qiziqardi, bilishbob, maqsadli, hayotiy tashkil qilish bilan uzviy bog'liq.

Adabiyotlar/Literatura/References:

1. Coulter M. K., Colvin N. Civic engagement assignments and student political efficacy // *PS Political Science and Politics*. 2025. Published online 12 September 2025. DOI: 10.1017/S1049096525000769.
2. Siegel Stechler K., Hilton K., Medina A. Youth rely on digital platforms, need media literacy to access political information. *CIRCLE*, Tufts University. 12 May 2025.
3. Voitovych N., Kitsa M., Mudra I. Media Education and Media Literacy as a Factor in Combating Disinformation // *Journalism and Media*. 2025. Vol. 6. No. 4. Article 188. DOI: 10.3390/journalmedia6040188.
4. Watfa A.A. From national loyalty to student political participation: the mediating effect of university citizenship promotion // *Frontiers in Education*. 2025. Article 1600175. DOI: 10.3389/educ.2025.1600175.
5. Gaitán Aguilar L., Hofhuis J., Jansz J. A review of research on global citizenship in higher education: towards a holistic approach // *International Journal of Intercultural Relations*. 2024. Vol. 102. Article 102050. DOI: 10.1016/j.ijintrel.2024.102050.
6. Zhang Q., Cao Y. The evolution and discourse of higher education internationalization since the 21st century: controversies, criticisms and current trends // *Cogent Education*. 2024. Vol. 11. No. 1. Article 2400443. DOI: 10.1080/2331186X.2024.2400443.
7. Ncube C.N., Tawanda T. Critical digital pedagogy for contemporary transformative practices in the Global South: a literature review // *Cogent Education*. 2025. Vol. 12. No. 1. Article 2523133. DOI: 10.1080/2331186X.2025.2523133.
8. Römer L. Through media and digital literacy education towards civic participation of disadvantaged youth // In: *Digital Inclusion*. Cham: Springer, 2024. P. 201–223. DOI: 10.1007/978-3-031-28930-9_10.
9. Cohen A.K., et al. The I ACTED study: a cluster randomized controlled trial of a school based action civics education intervention on adolescent wellbeing // *BMC Public Health*. 2025. Vol. 25. Article 24838. DOI: 10.1186/s12889-025-24838-y.

10. International Foundation for Electoral Systems. Understanding young people's political and civic engagement as a counter to democratic backsliding. Learning Agenda Report. Washington, DC: IFES, 2024.
11. Revista Latina de Comunicación Social. Media and information literacy and citizenship education in university students // Revista Latina de Comunicación Social. 2025. No. 83. DOI: 10.4185/rlds-2025-2447.
12. News Literacy and Civic Engagement Full Report. NewsWise in Primary Education Project. Birmingham: Jubilee Centre for Character and Virtues, University of Birmingham, 1 February 2024.
13. Giani M. Political engagement of university students in a marketized higher education system // Higher Education. 2025. Vol. 89. No. 2. P. 317–335. DOI: 10.1007/s10734-024-01138-5.
14. Федорченко С.Н. Политическая социализация молодежи в условиях трансформации высшего образования // Вестник Московского государственного областного университета. Серия: История и политические науки. 2022. № 3. С. 92–101.

ИЖТИМОЙ ТАДҚИҚОТЛАР ЖУРНАЛИ

ЖУРНАЛ СОЦИАЛЬНЫХ ИССЛЕДОВАНИЙ
JOURNAL OF SOCIAL STUDIES

Контакт редакций журналов. www.tadqiqot.uz
ООО Тадқиқот город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of www.tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000